



**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILAR O'RTASIDAGI
KONFLIKTLI HOLATLARNI BOSHQARISHGA TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASI.**

RAVSHANOVA GULIZORA QARSHIBOY QIZI

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ilmiy pedagogik faoliyatida uchraydigan asosiy atamalar, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati davomida alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari va qay tarza yondashish zarurligi, shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining innovatsion va texnologik faoliyatini tashkil qilish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining innovatsion faoliyati, kreativlik, texnologik yondashuv

**ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К
УПРАВЛЕНИЮ КОНФЛИКТНЫМИ СИТУАЦИЯМИ МЕЖДУ
УЧЕНИКАМИ.**

АННОТАЦИЯ В данной статье рассматриваются основные термины, встречающиеся в научно-педагогической деятельности будущего учителя начального образования, правильная организация педагогической деятельности, аспекты, на которые будущим учителям начального образования следует обращать особое внимание в ходе своей научно-педагогической деятельности, и необходимый подход, а также организация инновационно-технологической деятельности будущего учителя начального образования.

Ключевые слова: образование, педагогическая деятельность, педагогическое мастерство, инновационная деятельность будущего учителя начальных классов, креативность, технологический подход.



FORMS, METHODOLOGY AND TOOLS OF RESOLVING CONFLICT SITUATIONS BETWEEN THE TEACHER AND THE STUDENT

ABSTRACT

This article discusses the main terms encountered in the scientific pedagogical activity of a future primary education teacher, the proper organization of pedagogical activity, the aspects that future primary education teachers should pay special attention to during their scientific pedagogical activity, and the necessary approach, as well as the organization of the innovative and technological activities of a future primary education teacher.

Keywords: education, pedagogical activity, pedagogical skills, innovative activities of the future primary education teacher, creativity, technological approach

KIRISH

Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari aniqlandi, xorijiy tajribalar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsion jarayonlarni faol qo'llab-quvvatlash, ta'limni rivojlantirishning me'yoriy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmonida [1]

«Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» va boshqa vazifalar ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Natijada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Jahonda ta'lim jarayonida innovatsion rivojlanishning darajasini tezkor va ishonchli tahlil qilishga mo'ljallangan baholash tizimlari yaratilgan. Baholash tizimlari Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) tomonidan xalqaro reyting tizimlarida qo'llanilmoqda. Reyting



tizimi INSEAD biznesmaktabi [1], Kornel universiteti va intellektual mulk Jahon tashkiloti tomonidan qo'llanilayotgan Global innovatsion indekslar uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, maktab hayotida o'quvchilar har tomonlama rivojlanib voyaga yetishadi: Ham jisman, ham ruhan, ham manan. Ularni bilim va tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan shxslar hissoblangan o'qituvchilar esa ularga o'z farzandlarini tarbiyalagandek, bor bilim va g'ayratlarini namoyon etishadi. Lekin shunday vaziyatlar bo'ladiki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konflikt vaziyatlar sodir bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan vaziyatga to'g'ri baho berishni, bu ziddiyatlarni bartaraf etish shakllari, metodikasini puxta egallashni talab etadi.

Quyida bu konfliktlarni bir qanchasi bilan tanishamiz:

Intizomga oid konfliktlar Intizomga oid bo'lgan, o'quvchilar va ayrim hollarda o'qituvchilar tomonidan sodir etiladigan ruhiy zo'riqish hamda ziddiyatlar, ta'lim jarayonida maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishiga doir tipik holatlarning statistik manzarasini tavsiflash muhim ahamiyatga molikdir. Salbiy xulq – atvorga doir faktlar orasida o'qituvchi tomonidan sodir bo'ladigan holatlar farqlanadi.

Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar. Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar orasida pedagogning o'smirlar bilimini baholashdagi xatolari salmoqli o'rin egallaydi. Chunonchi, o'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholaganda har ikki tomon orasida kuchli konflikt sodir bo'ladi.

“Yaxshi” va “Yomon” o'quvchilarga munosabat usuli

Xalqaro munosabatlardagi konflikt faqat taraflarning qarama- qarshi kurashi sifatida birgina harbiy harakatlardan iborat bo'lib qolmaydi. Zo'rlik vositalarisiz hal qilinadigan diplomatik konflikt, savdo, chegara, siyosiy konfliktlar bo'lishi mumkin

“Chegaradan chiquvchi etik” konfliktlar termini boshlang'ich sinf o'qituvchilari xulq – odobida namoyon bo'luvchi qo'pol g'ayripedagogik munosabatshakllarini aniqlashda qo'llaniladi.

O'quvchilar orasidagi konfliktlar.



O'quvchilarning har xil predmet o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo'lgan e'tirozlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi.

O'quvchilarning bu sohadagi e'tirozlari quyidagicha: tushuntira olmaslik, sistemasiz, palapartish bayon, tilning o'rinsiz murakkabligi, takrorlashning yo'qligi, materialni quruq bayon qilish, mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik, xo'ja ko'rsinga "mavzuni" bajarish, predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik, xolis baholash olmaslik, arzimagan javobga yuqori baho qo'yish, barcha o'quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo.

O'smirlar o'qituvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari jarayonida maktabning birinchi pog'onasida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan anchagina farq qiladi. Bunday ziddiyatlarning o'smir yoshi bilan bog'liq jihatlari nimalardan iborat? O'smir yoshining oliy o'quv yurti pedagogika va psixologiyasida o'qitiladigan tavsifnomasiga murojaat qilamiz. Pedagogika nazariyasining tegishli bo'limida o'smirlik yoshi bolalik va katta yosh holatining oralig'ida ekanligi qayd etiladi. Pedagogika qo'llanmasi mualliflari "o'prilishli" (krizisli), "qiyin", "o'tish", "konfliktli", "og'riqli" kabi terminlarni ko'p qo'llaydilar. O'quvga bo'lgan qiziqishning sustligi o'smir uchun xos. U romantik tuyg'ularga berilgan bo'ladi. O'smirda jinsiy bilimlarga bo'lgan qiziqish uyg'ongan bo'ladi. U o'z kuch va qobiliyatlariga yuqori baho beradi. Kattalarga taqlid qilish, ularga o'xshashga harakat qilishga intiladi. A.S.Makarenko fikricha, o'smirlar – bu haqiqiy risarlar. Ular qo'rqmasdan pedagog orqasidan o'zini o'tga ham suvga ham uradi, agar u haqiqiy ustoz bo'lsa.

Psixologlar o'z navbatida, kim boshlang'ich sinfda yaxshi o'qigan, tartibli bo'lsa, o'smir yoshiga kelib qo'pol, tez intizomsiz bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'rnatgan tartib – intizomga so'zsiz bo'ysunish o'rnini o'z insoniy qadr – qimmatiga ortiqcha baho berish tuyg'usi egallaydi. Ilgari boshlang'ich sinflarda o'qituvchining so'zidan xafa bo'lmagan o'smir yuqori sinf o'qituvchisining aynan shu so'zidan norozi bo'ladi.

O'smirlarda o'zligini anglash kattalar bilan bo'lib o'tadigan munosabatlarning yomonlashuvi bilan o'zaro almashinib turishi kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun



mo'ljallab chop etilgan qo'llanmalarda qayd etilgan o'smirlar xarakter xususiyatlariga doir umumiy tasavvurlar ana shulardan iborat. Ko'p sonli tadqiqotlarda o'smirlarning ijtimoiylashuvi masalasida qimmatli ma'lumotlar uchraydiki, ularga asoslangan holda o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarida yuz beruvchi konfliktlarni pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri hal etish mumkin bo'ladi.

Bu sohada o'smirlarning muomalaga kirisha olish tiplariga doir tadqiqot natijalari qiziqishga loyiqdir. Bularning uch turi farqlanadi.

1. Odamovi maktab o'quvchisi. Yolg'izlikka moyil. U tengdoshlari bilan muloqotga kirishganda toliqadi. Noqulaylik his etadi. Yolg'iz qolganida, it, mushuk va boshqa predmetlar bilan qolganda o'zini yaxshi his etadi.

2. Juft – juft muloqotga moyil o'quvchi tipi. Uning o'zi ishonadigan do'sti bo'lishi lozim. Ularsiz yashay olmaydi, zerikadi. Ko'p hollarda do'stlashuv ijobiy munosabatning yuzaga kelishi bilan tugashi, yoki buning aksi ro'y berishi mumkin.

3. Jamoaviy muloqotga moyil o'quvchilar. Ulardan stixiyali ravishda sog'lom yoki nosog'lom dasturga ega bo'lgan o'smirlar jamoasi tashkil topishi mumkin.

Agar birinchi tip konfliktli sharoitda ruhiy zo'riqishni bir o'zi boshdan kechiradigan bo'lsa, ikkinchi tip, ayniqsa uchinchi tipga mansub o'quvchilarda tabiiy ravishda tashqi himoya to'sig'iga ega bo'ladilar. O'smirlar o'qiydigan sinflarda konfliktga kirishuvchilar soni keskin kengayadi, chunki endi ular boshlang'ich sinfdagidek bir o'qituvchi bilan emas balki, o'nlab – yigirmatalab o'qituvchilar bilan muloqotda bo'ladilar, demak, konfliktga kirishuvlari ham mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, o'smir – o'quvchilar bilan predmet o'qituvchilari orasida konfliktsiz hamkorlik umuman uchramaydi. Bu o'smirlar yaxshi o'qituvchilar masalasida omadsizlar degan gap emas. Gap shundaki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarda ham o'quvchilardagi kabi ruhiy zo'riqish uchraydi. Konfliktologiya fani bo'yicha nazariy qoidalarga asoslangan holda bir necha pedagogik jihatdan ahamiyatli tushuntirishlarni keltiramiz. Konfliktida qatnashuvchi tomonlar safida ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilarining barchasi ishtirok etishi mumkin. Shu jumladan, o'quvchilarning ota-onalari, metodik xizmat rahbarlari, boshqaruv apparati xodimlari ham.



Yuzaga kelishi jihatidan boshlang'ich sinflarda konfliktlar kutilmaganda, oldindan rejalashtirilmagan holatda sodir bo'ladi. Bu konfliktning eng xavfli variantidir, chunki bunday paytda vaqt yetishmasligi tufayli o'qituvchi xato harakatlarga yo'l qo'yishi ehtimoli bor. Xuddi ana shunday paytda taqlidiylik o'qituvchini yo'ldan urishi, kutilmagan to'qnashuv nihoyatda og'riqli, jarohatli bo'lishi mumkin.

To'satdan yuz beruvchi konfliktlardan tashqari xarakteri va kechishi jihatidan tipik bo'lgan ziddiyatlar ham mavjud. Bunda o'qituvchi o'z tajribasiga tayangan holda u yoki bu qadar ilgari ishlab chiqilgan ssenariy asosida ish ko'radi. Ularni yuz bergan vaziyatga bir qadar moslashtirishga to'g'ri keladi, xolos.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Pedagogik monitoring o'quv-tarbiyaviy jarayonning holati va natijaviyligini kuzatish sifatida tushuniladi, bunda baholash va nazorat qilish, ya'ni jarayonni hamda miqdor va sifat jihatdan ifodalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonning natijaviyligini boshqarish nazarda tutiladi.
2. O'quvchining shaxsiy sifatlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish masalasini hal etishda shaxsiy-faoliyatli yondashuvning shaxsiy komponenti hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan ta'limda monitoringni joriy etish o'rganiladi.
3. Pedagogik monitoring asosida maqsadga yo'naltirilgan, tashkillashtirilgan kuzatuv yotadi, uning tarkibiga bir-biri bilan bog'liq bo'lgan elementlar mosligi kiradi, ularning tarkibi kuzatuv obyektining tarkibi bilan aniqlanadi.
4. Pedagogik monitoring tizimingning ta'lim muassasasi strukturasi ichiga kiritishni boshqarish o'quv muassasalarini innovatsion ish rejimiga o'tish hisoblanadi. Innovatsion jarayon orqali maktab rivojlanishi amalga oshadi. Bunda innovatsion jarayon kompleks faoliyat hisoblanadi va u o'zlashtirish, qo'llash, yangilikni tarqatish faoliyatini bajaradi va shu bilan maktab rivojlanishini shartlaydi.
5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchini



ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi.

Bu jarayonda o'quvchi o'z qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va

o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o'z-o'zini namoyon qila olsin. Ta'lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantiruvchi ham bo'lishi kerak. O'quvchining shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va uni muntazam nazorat qilish (ya'ni monitoring faoliyati) ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini o'quv tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun tadqiq etadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'qishga kelgan o'quvchilarni dastlabki kunlardan boshlab ular uchun qulay va turli, ya'ni nafaqat o'quv, bo'sh vaqtlarini darsdan tashqari faoliyatga jalb qilish, ularda o'qish, bilim olishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Mirziyoyev Sh.. "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot straregiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. 3. Mirziyoyev Sh..



O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

4. Ortiqov.O.R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta'lim mussasalari misolida) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130 1135.

5.Багаева С. Организация мониторинга качества знаний старшеклассников в процессе использования инфокоммуникационных технологий в общеобразовательной школе: Дис. канд. пед. наук. - Карачаевск, 2006.

6.Бахмутский А. Мониторинг школьного образования: проблемы решения. - СанктПетербург: «КАРО»,2007.

7.Хохлова С. Мониторинг качества школьного образования: Дис. канд. пед. наук. - Тюмень, 2003.

8.Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. Вып. 2. - М., 1996.

9.Каримов Р.Қ., Умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари. Пед. фан. ном. диссер - Т., 2006.

10.Юзликаева Э.Р. Педагогический мониторинг в личностно-ориентированном образовательном процессе в системе высшего образования. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2007.